

**O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALI: YOSHLAR**

Orolova Zebiniso Ulash qizi

Uzmu Iqtisodiyot Fakulteti Talabasi

**Annotasiya**

Ushbu maqolada mamlakatimizning innovatsion rivojlanishi jarayonlari va unda yoshlarning o'rni va roli, mavjud vaziyat va istiqbollar tahlil qilib o'tilgan. Mamlakatimizda yoshlarning innovatsion faoliyati uchun berilayotgan imkoniyatlar keltirilgan. Sohadagi islohotlar ko'rib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson kapitali, inson omili, islohatlar, boshqaruv, zamonaviy jamiyatlar, innovatsion iqtisodiyot.

**HUMAN CAPITAL IN UZBEKISTAN: YOUTH****Abstract**

This article analyzes the processes of innovative development of our country and the place and role of youth in it, the current situation and prospects. There are opportunities for innovative activities of young people in our country. Reforms in the sector have been discussed.

**Keywords:** Human capital, human factor, reforms, management, modern societies, innovative economy.

Bugungi o'zbek yoshlari murakkab va dinamik davrda mustaqil hayotga qadam qo'yemoqda. Bir tomonidan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bo'lsa, boshqa tomondan jamiyatni demokratlashtirish jarayonlari rivojlanib bormoqda. Shuningdek davrning yana bir o'ziga xos hususiyatlaridan biri - davlat va jamoat institutlari barqaror faoliyat yuritayotganligi hamdir. Bu o'zgarishlar natijasi o'larоq, mamlakat taraqqiyotga tizimli erishish uchun uchun strategik moddiy va kadrlar resurslariga ega bo'lib bormoqda. Boshqa tomonidan, ijtimoiy hayotdagi turli o'sib borayotgan ijtimoiy differentsiatsiya jarayonlari sezilarli tashvish tug'ilishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonda inson kapitali masalasi davlat tomonidan qabul qilingan strategik rivojlanish dasturlari va normativ-huquqiy asoslarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq holda asosiy o'rnlardan birini egalladi. Bu yerda gap aholiga doir siyosatda global taraqqiyotining hozirgi bosqichida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish masalasi haqida ketmoqda. So'nggi o'n yilliklar ichida mamlakatimiz aholisi hayotida yuz bergan o'zgarishlar yoshlarning turli guruuhlariga, ayniqsa ularning qadriyatlari, yo'nalishlari va o'zini tutish va moslashish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Olimlar inson kapitalini rivojlantirishning afzalliklari haqida ko'p narsalarni biladi. Biroq bu rivojlangan davlatlarning shu yo'nalishdagi harakatlarini jadallashtirishga ishonchli da'vat bo'la olmadı. Inson kapitalining ahamiyatini bir nechta turli usullarga asosan baholash mumkin. An'anaga ko'ra, iqtisodchilar buni ko'proq ta'lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblar edi.

Tadqiqotlar har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 foizga oshirishini ko'rsatdi. Bunda ta'lim sifati ham muhim. Misol uchun, AQSHdagi boshlang'ich maktabning alohida sinfida malakasi past o'qituvchini o'rta darajadagi mutaxassisiga almashtirish o'quvchilarga butun umri

davomida 250 ming dollargacha umumiy daromad olish imkonini beradi. Ammo kognitiv imkoniyatlar inson kapitalining yagona ko'rsatkichi emas. Mardlik, iroda va halollik kabi ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar, odatda katta iqtisodiy samaradorlik keltiradi. Sog'liq ham muhim ahamiyatga ega. Negaki, sog'lom insonlarning mehnat samaradorligi yuqori bo'ladi.

Misol uchun, 2015 yilda Keniyada o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bolalarga narxi atigi 30 sentga teng gelmintlarga qarshi dori vositalarini berish mакtabda dars qoldirishni kamaytirishga, keyinchalik esa mustaqil hayotga qadam qo'yganda oylik maoshining jami 20 foizga oshishiga olib keldi. Erta yoshdan inson kapitalini turli yo'llar bilan o'lchab borish yaxshi samara beradi. Bolani go'daklikdan to'g'ri ovqatlantirish, sog'lom rivojlanishini rag'batlantirish keyinchalik uning jismoniy va ruhiy farovonligini yaxshilaydi. Ayni paytda bolalikda kognitiv va ijtimoiy-hissiy imkoniyatlarda yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarni balog'at yoshiga yetganda tuzatish qimmatga tushadi. Shuning uchun hukumat tomonidan inson kapitalini bola hayotining dastlabki 1000 kunligida rivojlanirish iqtisodiy samara beradi. Bularning barchasi iqtisodiy o'sish bilan nechog'li bog'liq? Birinchidan, inson kapitaliga individual sarmoyalardan olinadigan foyda qo'shilsa, umumiy samara alohida qismlar miqdoridan ko'proq ekanligi ayon bo'ladi. Keniyadagi maktab o'quvchilariga qaytdigan bo'lsak, birgina bolaning gelmintlardan xalos bo'lishi boshqa bolalarning zararlanish ehtimolini kamaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakda yaxshi o'qishi va ulg'aygach nisbatan katta maosh olishiga olib keladi. Inson kapitali o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi, u davlat tomonidan rivojlanirilishi lozim. Xususan, ko'pincha inson kamoloti uchun investitsiya kiritish va bu sarmoyaning boshqalarga ham tarqalishi omili inobatga olinmaydi. Masalan, ota-onalar o'z farzandining gijjasini davolash haqida qaror qabul qilar ekan, avvalo, uning salomatligi haqida qayg'uradi. Biroq bu harakatlar boshqa bolalarning kasallanish xavfini kamaytirishini eslamaydi, yoki farzandning bog'chadayoq ko'proq bilimga ega bo'lishi uchun pul sarflayotgan ota-onalarni olaylik. Ular shu orqali kelajakda jinoyatchilikning kamayishi va mahbuslar sonining qisqarishi singari yanada kengroq ijtimoiy ahamiyatga ta'sir ko'rsatayotganini e'tiborga olmaydi.

O'zbekiston aholisining 60 foizi yoshlardan iborat, teng yarmini esa ayollar tashkil qiladi. ekspertlar tahliliga ko'ra, 2048 yilga borib yurtimizda mehnatga layoqatli aholi soni hozirigidan ancha ko'payadi. Natijada mamlakat qimmatbaho demografik dividentni qo'lga kiritishi mumkin. Hamma gap bu unikal imkoniyatdan nechog'li unumli foydalana olishimizda.

Demografik divident iqtisodiy foyda ko'rinishida o'zimizga qaytishi uchun aholining asosiy tarkibi – yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlash ayni muddao. Boshqacha aytganda, hukumat inson kapitaliga katta hajmda investitsiya kiritishi zarur. Bu kelajakda nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirish, balki ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish — kambag'allik va salohiyatli kadrlar migratsiyasini qisqartirish, ishsizlikni bartaraf etish, xalqning turmush darajasini oshirish imkonini beradi. Inson kapitalini rivojlanirish – bir kunlik ish emas. Mazkur missiya kompleks yondashuv hamda uzoq muddatli, muhim, aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni talab qiladi. Bu borada tayyor echimlar yo'q. Har qaysi mamlakat o'z yo'li va yo'nalishini mustaqil tarzda belgilab olmog'i darkor. SHu nuqtai nazardan bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar va ayollar bilan manzilli ishslash mexanizmi joriy qilinmoqda.

Yurtimiz aholisining yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Qishloq ahlini esa er boqadi. Mana shunday mantiqqa asoslanib, bir necha yil avval O'zbekistonda "Har bir yoshga 1 hektar" loyihasiga start berilgandi. G'oya yaxshi, ammo uning amaldagi ijrosi juda sust. "O'tgan yili bu borada murojaat qilgan 14 ming nafar yoshdan atigi 3 mingiga er berilgan, xolos", dedi davlatimiz rahbari. SHu sababli

Prezidentimiz hukumat oldiga aniq vazifa qo'ydi – endilikda joylarda har 10 hektar ekin maydonidan 1 hektari yoshlarga dehqonchilik uchun ajratilishi shart. SHuningdek, o'z tomorqasida limonchilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik qilish istagini bildirgan yigit-qizlarga kredit ajratish tartibi joriy qilingan.

Biz mammuniyat bilan, O'zbekiston 2018 yilda Inson kapitalini rivojlantirish loyihasini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlagan jahoning boshqa 27 ta davlatlariga qo'shilgan Markaziy Osiyodagi birinchi davlat bo'lganligini ta'kidlab o'tishimiz joiz. Ko'rib turganingizdek O'zbekiston jamiyatining rivojlanishning innovatsion turini o'zlashtirish yo'li murakkabdir. Ushbu yo'lida muvaffaqiyat qozonish uchun erishilgan natijalarni birlashtiradigan va belgilangan maqsadlar sari borishda yangi imkoniyatlar yaratadigan milliy innovatsion tizim, institutlar tizimi, munosabatlar, ijtimoiy amaliyot juda muhimdir. Innovatsion rivojlanish, jamiyatni modernizatsiya qilish biz uchun mutanosib qarorlar, mehnatsevarlik, davlat, jamiyat, biznes va nodavlat sektorning sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladigan asosiy jarayondir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yuldashev, S., & Mullayeva , M. (2021). O'ZBEKİSTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI. Архив научных исследований.
2. Rajabboyev, J. J. O. (2021). INNOVATSION RIVOJLANISH VA YOSHLAR: MAVJUD VAZİYAT VA İSTİQBOLLAR. Academic research in educational sciences, 2(1), 814-818.
3. Rajabboyev, J. J. O. (2021). INNOVATSION RIVOJLANISH VA YOSHLAR: MAVJUD VAZİYAT VA İSTİQBOLLAR. Academic research in educational sciences, 2(1), 814-818.

[www.kun.uz](http://www.kun.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)